



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 134-142 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH



Ruziyev Shavkatjon Faxridinovich
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada budjet tashkilotlarida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Asosiy vositalar hisobining tashkil etilishi, ularning boshlang'ich qiymati va amortizatsiya hisobi, shuningdek, fond qaytimi, fond sig'imi, fondlar bilan qurollanganlik va fondlar rentabelligi kabi umumiy ko'rsatkichlar tahlili taqdim etiladi. Shuningdek, uskuna va jihozlardan foydalanishning ekstensiv va intensiv koeffitsiyentlari, integral koeffitsiyent va smenalik koeffitsiyenti kabi maxsus ko'rsatkichlar ham keltiriladi. Ushbu ko'rsatkichlar asosiy vositalardan samarali foydalanish darajasini aniqlash va budjet tashkilotlarining moliyaviy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: budjet tashkilotlari, asosiy vositalar, fond qaytimi, fond sig'imi, fondlar bilan qurollanganlik, fondlar rentabelligi, ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti, intensiv foydalanish koeffitsiyenti, integral koeffitsiyent, smenalik koeffitsiyenti, samaradorlik, boshqaruv hisobi.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты оценки эффективности использования основных средств в бюджетных организациях. Представлен анализ организации учета основных средств, их первоначальной стоимости и начисления амортизации, а также общих показателей, таких как фондоотдача, фондоемкость, фондовооруженность и фондорентабельность. Кроме того, рассматриваются специальные показатели использования оборудования и техники, такие как коэффициенты экстенсивного и интенсивного использования, интегральный коэффициент и коэффициент сменности. Эти показатели имеют важное значение для определения степени эффективного использования основных средств и повышения финансовой эффективности бюджетных организаций.

Ключевые слова: бюджетные организации, основные средства, фондоотдача, фондоемкость, фондовооруженность, фондорентабельность, коэффициент экстенсивного использования, коэффициент интенсивного использования, интегральный коэффициент, коэффициент сменности, эффективность, управленческий учет.

Abstract. The article examines the theoretical and practical aspects of assessing the efficiency of fixed assets use in budgetary organizations. It presents an analysis of the organization of accounting for fixed assets, their initial cost, and depreciation calculation, as well as general indicators such as asset turnover, capital intensity, capital-labor ratio, and return on assets. In addition, it considers specific indicators of equipment and machinery use, such as the coefficients of

extensive and intensive use, the integral coefficient, and the shift coefficient. These indicators are of significant importance for determining the level of efficient use of fixed assets and improving the financial performance of budgetary organizations.

Keywords: *budgetary organizations, fixed assets, asset turnover, capital intensity, capital-labor ratio, return on assets, coefficient of extensive use, coefficient of intensive use, integral coefficient, shift coefficient, efficiency, management accounting.*

Kirish

Hozirgi kunda budjet tashkilotlari faoliyatida davlat mulkidan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlash muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda asosiy vositalar budjet tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini shakllantiruvchi hamda ularning funksional faoliyatini uzluksiz amalga oshirishda muhim o'rin tutuvchi resurslar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, asosiy vositalarning holati, harakati va ulardan foydalanish samaradorligini baholash masalalari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobini yuritish va nazorat qilish amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solingan bo'lsa-da, ularning boshqaruv tahlilini amalga oshirish uslubiyotlari yetarli darajada takomillashmagan. Amaliyotda mavjud tahliliy yondashuvlar ko'proq moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bilan cheklangan bo'lib, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini kompleks baholash imkoniyatini to'liq ta'minlamaydi. Bu esa davlat mulkini boshqarishda oqilona qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi.

Shu munosabat bilan budjet tashkilotlarida asosiy vositalar tahlilini boshqaruv ehtiyojlariga moslashtirish, uning bosqichma-bosqich uslubiyotini ishlab chiqish hamda takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Asosiy vositalar tahlili natijalarini budjet xarajatlari samaradorligini oshirish, resurslardan maqsadli foydalanish va yuqori turuvchi budjet mablag'lari taqsimlovchi organlar uchun ishonchli axborot bazasini shakllantirishda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Xorijiy adabiyotlarda ushbu masalalar ko'proq aktivlarni boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va investitsion samaradorlikni oshirish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida esa davlat va budjet tashkilotlarida asosiy vositalarni boshqarish tizimlari samaradorlikni baholashning integratsiyalashgan yondashuvlari asosida tashkil etilgan. Mahalliy tadqiqotchilar ham budjet tashkilotlarida asosiy vositalar bilan bog'liq moliyaviy va operatsion muammolarni o'rganib, ularni muntazam texnik xizmat ko'rsatish, yangilash va rejalashtirilgan investitsiyalar orqali modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqmoqdalar. Natijada, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar budjet tashkilotlarida asosiy vositalar boshqaruvini takomillashtirish, resurslardan maqsadli va oqilona foydalanish hamda davlat mulkidan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini ko'rsatmoqda.

I. M. Salkovskaya maqolasida asosiy vositalarni tahlil qilish metodikasini takomillashtirish, ularning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini hisoblash usullari ko'rib chiqilgan [1].

AR Avetisyan o'z maqolasida asosiy vositalarni tahlil qilishning o'ziga xos jihatlari haqida to'xtalib o'tadi. Muallif tashkilot asosiy vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish rezervlarini aniqlash, texnik qayta jihozlash, yangilash va texnik bazani kengaytirish bo'yicha investitsiyalar zarurligini asoslaydi [2].

Ukrainalik mutaxassis Kovalning fikricha, korxonalarda asosiy vositalarni hisobga olishning jihatlari hamda ularning urush sharoitidagi qonuniy va normativ-huquqiy ta'minoti dolzarb masala hisoblanadi. Asosiy vositalarni hisobga olishning amaldagi nazariy asoslari, usullari, tashkil etilishi va amaliyotini baholash, ularni takomillashtirish yo'llarini ko'rib chiqish hamda budjet tashkilotlarida muvozanatli hisob va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda amaliy qo'llash imkoniyatlarini aniqlash yuqoridagi muallif tadqiqotining asosiy maqsadi hisoblanadi [3].

Rossiyalik mutaxassis Gerasimova budjet muassasalari resurslaridan foydalanishni optimallashtirish va natijalarga asoslangan boshqaruvni ta'minlash uchun tahlil va samaradorlikni baholashning yangi yo'nalishlari dolzarbligini ko'rsatib o'tadi. Tadqiqotda samarali tahlil tizimini yaratishga to'sqinlik qiluvchi muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqilgan, davlat moliyaviy va moddiy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga innovatsion yondashuvlar taklif etilgan. Shuningdek, budjet muassasasining moliyaviy holati, natijalari va xavflari baholangan, moliyaviy tahlilning maqsadlari va ustuvor usullari aniqlangan hamda buxgalteriya va buxgalteriya bo'lmagan ma'lumotlar asosida budjet ijrosining samaradorligi baholangan [4].

Prodanchuk olib borgan tadqiqotlar budjet muassasalarida uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishdagi muammoli jihatlarni aniqlash hisob va hisobot ma'lumotlarining informativligini oshirish, ularning aniqligi, ishonchliligi va solishtiriluvchanligini ta'minlash imkonini bergan. Uzoq muddatli aktivlarning hisobga olinishi jihatlarni takomillashtirish ichki nazorat (shu jumladan inventarizatsiya) samaradorligini oshirishga va shu orqali budjet muassasalarida ularni boshqarishni yaxshilashga yordam berishi mualliflar tomonidan alohoda e'tirof etilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada budjet tashkilotlarida asosiy vositalar tahlilini amalga oshirish jarayonlarini o'rganish uchun tizimli yondashuv asosida bir qator tadqiqot usullari qo'llangan. Epistemologik usul "asosiy vositalar" tushunchasining mazmunini aniqlash va chuqurlashtirishda, umumiy ilmiy usullar – analiz, sintez, induksiya, deduksiya, abstraktsiya, idealizatsiya va umumlashtirish – esa asosiy vositalarni boshqarish, hisobga olish va tahlil qilish nazariyasi va metodikasini ishlab chiqishda ishlatilgan. Bibliografik va bibliometrik tahlillar orqali nazariya va metodikadagi mavjud yo'nalishlar, muammoli jihatlari va ularni takomillashtirish tendensiyalari aniqlangan, formalizatsiya usuli esa asosiy vositalarni hisobga olishdagi muammolarni hal qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga imkon yaratgan.

Tahlil va natijalar

Har qanday korxonaning ishlab chiqarish–xo‘jalik faoliyati moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarsiz, shuningdek, asosiy fondlarsiz (mehnat vositalari, mehnat jarayonining moddiy shart-sharoitlarisiz) mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Asosiy vositalarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular ishlab chiqarish jarayonida ko‘p marotaba foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lib, uzoq muddat davomida o‘zining dastlabki tashqi ko‘rinishini saqlab qoladi. Biroq, ishlab chiqarish jarayoni va tashqi muhit ta‘sirida asosiy vositalar asta-sekin o‘zining dastlabki xususiyatlarini yo‘qota boradi, ya‘ni ularning eskirishi sodir bo‘ladi.

Asosiy vositalar o‘zining dastlabki qiymatini belgilangan xizmat muddati davomida ishlab chiqarish xarajatlariga bosqichma-bosqich o‘tkazadi. Bu jarayon belgilangan me‘yorlar asosida eskirish (amortizatsiya) hisoblash orqali amalga oshiriladi [6].

Asosiy vositalarning faqat jismoniy eskirishi (ya‘ni faoliyat jarayonida yoki foydalanilmagan holatda ham dastlabki qiymatining yo‘qolishi, bu tabiiy hol hisoblanadi)gina emas, balki ma‘naviy eskirishi ham hisobga olinishi lozim. Ma‘naviy eskirish — asosiy vositalarning jismoniy xizmat muddati tugamasdan oldin ularning almashuv qiymatini yo‘qotishi bo‘lib, bu iqtisodiy taraqqiyot natijasida yuzaga keladi.

Korxonada asosiy vositalarning jismoniy va ma‘naviy eskirishi jarayonini samarali boshqarishi kerak. Bu orqali asosiy fondlarning, ayniqsa ularning faol qismida ortiqcha jismoniy va ma‘naviy eskirishga yo‘l qo‘ymaslik ta‘minlanadi [7].

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ularni to‘g‘ri hisobga olish zarur. Bu shunday muammoki, uning echimi korxonaning sanoat ishlab chiqarishidagi o‘rni, moliyaviy holati hamda bozordagi raqobatbardoshligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Budjet sohasi va buxgalteriya hisobi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatga barcha axborotlarni o‘z vaqtida va ishonchli tarzda olish hamda taqdim etish imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ravishda budjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi to‘g‘ri tashkil etilishi mazkur islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [8].

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi quyidagi asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- asosiy vositalarning kelib tushishi, ichki harakati va chiqib ketishini o‘z vaqtida hujjatlashtirish hamda hisobda aks ettirish;
- asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiyani to‘g‘ri hisoblash va hisobda aks ettirish;
- asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘liq aniqlash;
- asosiy vositalar chiqib ketganda yuzaga keladigan natijalarni aniq hisoblash;
- buxgalteriya hisobiga qabul qilingan asosiy vositalarning saqlanishi va ulardan samarali foydalanilishini nazorat qilish.

Asosiy vositalar tahlilini o‘tkazish asosiy vosita ob‘ektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash, shuningdek, ularning holati va saqlanishini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

2021 yil 1 yanvardan boshlab Moliya vazirligining 2018 yil 20 oktyabrdagi 3078-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Budjet hisobi standarti №2 — “Yagona hisobvraqlar

rejasi” amalga kiritildi. Ushbu standartga muvofiq hisob raqamlarining tartibi to’liq o’zgartirildi hamda asosiy vositalarni hisobga olish uchun yangi subhisoblar joriy etildi.

Budjet tashkilotlarining asosiy vositalari – bu tashkilot zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish, ishlar amalga oshirish, xizmatlar ko’rsatish hamda ijaraga berish maqsadida foydalaniladigan moddiy aktivlardir. Bunday aktivlarning xizmat muddati qiymatidan qat’i nazar, bir yildan ortiq bo’ladi.

Asosiy vositalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- korxonalar balansida turgan va xodimlar, jumladan harbiy xizmatchilar yashashi uchun mo’ljallangan turar joy binolari;
- ishlab chiqarish va tijorat binolari, davlat muassasalari hamda ijtimoiy-madaniy ob’ektlarni (ta’lim muassasalari, kasalxonalar, poliklinikalar, maktabgacha ta’lim muassasalari, kutubxonalar, muzeylar, laboratoriyalar va boshqalar) o’z ichiga olgan noturar joy binolari va inshootlar;
- mashinalar va uskunalar, transport vositalari, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya uskunalari;
- katta ishchi va mahsuldor chorva mollari, ko’p yillik daraxtlar va o’simlik resurslari;
- kutubxona fondi;
- intellektual mulk ob’ektlari, jumladan turli tadqiqot va ishlanmalar, dasturiy ta’minotlar, ma’lumotlar bazalari;
- sahnaviy-qo’yilma vositalar;
- o’quv kinofilmlar, disklar va lentalar;
- muzey qimmatliklari, hayvonot dunyosi eksponatlari;
- qishloq xo’jaligida foydalanish uchun erlarni obodonlashtirish bo’yicha kapital qo’yilmalar hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar (maydonlarni toshlardan tozalash, suv havzalarini tozalash, er tuzish ishlari va boshqalar);
- harbiy maqsaddagi uskuna va texnika.

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi 221 000 “Asosiy vositalar” schyotlarida yuritiladi. 211 000 hisobvaraqlarning debetida asosiy vositalarning kelib tushishi (boshlang’ich qiymatining ko’payishi), kreditida esa asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi (boshlang’ich qiymatining kamayishi) aks ettiriladi.

1-jadval

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar

Hisobvaraqlar	Subschiyot	Subschiyotlar nomi
221	000	Asosiy vositalar
221	100	Bino va inshootlar
221	110	Uy-joylar
221	120	Noturar binolar
221	130	Boshqa inshootlar
221	140	Yerlarni obodonlashtirish
221	200	Mashinalar va uskuna
221	210	Transport vositalari
221	220	Mashinalar va uskuna (transport vositalaridan

		tashqari)
221	221	Axborot, kompyuter va telekommunikatsiya uskunalari
221	222	Boshqa turdagi mashinalar va uskuna
221	300	Boshqa asosiy vositalar
221	310	Biologik aktivlar
221	311	Ishchi va mahsuldor hayvonlar
221	312	Ko'p yillik daraxtlar va o'simlik resurslari
221	320	Intellectual mulk obyektlari
221	321	Tadqiqotlar va ishlanmalar
221	322	Foydali qazilmalarni qazib olish
221	323	Dasturiy ta'minot
221	324	Ma'lumotlar bazasi
221	325	Ko'ngilochar, badiiy va ijodiy qimmatliklar
221	326	Intellectual mulkning boshqa turlari
221	330	Kutubxona fondi
221	331	O'quv fondi
221	332	Badiiy adabiyot fondi
221	339	Kutubxonaning boshqa fond turlari
221	400	Harbiy ahamiyatga molik asosiy vositalar

Manba: O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018-yil 10-sentabrdagi 125-son "O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (2-sonli BHS) "Yagona schyotlar rejasi"ni tasdiqlash to'g'risida" buyrug'i.

Asosiy vositalar (AV) buxgalteriya hisobiga **boshlang'ich qiymati** bo'yicha qabul qilinadi. Boshlang'ich qiymat quyidagi xarajatlarni o'z ichiga oladi:

- yetkazib beruvchiga to'langan asosiy vositani sotib olish summasi;
- qurilish yoki montaj ishlari bo'yicha shartnomalar asosida pudratchilarga to'langan summalar;
- asosiy vositani sotib olish yoki qurish bilan bog'liq soliqlar va majburiy to'lovlar, shu jumladan qaytarilmaydigan bojxona to'lovlari va yig'imlar;
- asosiy vositani sotib olish yoki yaratish bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlari xarajatlari;
- asosiy vositani yetkazib berish yoki yaratish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni sug'urtalash xarajatlari;
- asosiy vosita vositachilar orqali sotib olingan taqdirda, ularga to'langan mukofotlar;
- asosiy vositani o'rnatish, sozlash va foydalanishga topshirish bilan bog'liq xarajatlar;
- asosiy vositani ishchi holatga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Agar asosiy vosita budjet tashkilotining o'zi tomonidan tayyorlangan bo'lsa, uning boshlang'ich qiymatiga obyektning qurish bo'yicha haqiqiy xarajatlar summasi kiritiladi.

Asosiy vosita **tekinga (beg'araz) olingan** hollarda esa, boshlang'ich qiymat sifatida obyektning joriy (bozor) qiymati hamda uni qabul qilish jarayonida yuzaga kelgan qo'shimcha xarajatlar e'tirof etiladi.

Bozor iqtisodiyoti va raqobat sharoitida resurslardan, shu jumladan ishlab chiqarishning asosiy vositalaridan samarali foydalana olgan korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritadi. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun uskunalarning qay darajada yuklanganini, xodimlarning texnika bilan ta'minlanganlik holatini hamda kapital qo'yilmalarning qay darajada tejamkor sarflanayotganini ko'rsatuvchi maxsus ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- **fond qaytimi;**
- **fond sig'imi;**
- **fondlar bilan qurollanganlik;**
- **fondlar rentabelligi.**

Fond qaytimi — asosiy vositalardan intensiv foydalanish omillaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishning texnologik samaradorligini tavsiflaydi. **Fond qaytimi** oshgan sari, tayyor mahsulotning 1 so'miga to'g'ri keladigan amortizatsiya ajratmalari miqdori kamayadi, natijada tovar narxida foydaning ulushi ortib boradi.

Fond qaytimi ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich asosiy fondlardan foydalanish darajasini tahlil qilishda, ishlab chiqarish hajmlarini rejalashtirishda hamda yangi quvvatlarni oshirishni asoslashda qo'llaniladi.

Fond qaytimi darajasi va uning dinamikasiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmi (natural ifodada) va mahsulot narxi;
- asosiy fondlarning tarkibi va tuzilishi;
- mashinalar va uskunalarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari (unumdorligi, narxi va boshqalar), asosiy fond elementlarining eskirish darajasi;
- foydalanilmayotgan asosiy fond elementlarining ulushi;
- mashinalar va uskunalarning yuklanish darajasi;
- korxonaning ishlab chiqarish maydoni va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyentlari.

Fond qaytimi quyidagicha hisoblab topiladi:

$$Fq = Ymq/AsVyq$$

Bunda, Fq — fond qaytimi; Ymq — yillik mahsulot qiymati; $AsVyq$ — asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati.

Fond sig'imi — fond qaytimining teskari ko'rsatkichidir. U ishlab chiqarishga mo'ljallangan asosiy vositalarning o'rta yillik qiymatining hisoboti davrida ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Fond sig'imining kamayishi va fond qaytimining oshishi asosiy fondlardan foydalanish samaradorligining oshishini bildiradi va kapital qo'yilmalarni tejashga olib keladi.

Fond sig'imi quyidagicha hisoblab topiladi:

$$Fs = AsVyq/Ymq$$

Bunda, F_s – fond sig'imi; Ymq – yillik mahsulot qiymati; $AsVyq$ – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati.

fondlar bilan qurollanganlik – bu ko'rsatkich ishlab chiqarish jarayonida bir xodim uchun qancha qiymatda asosiy vositalar mavjudligini ko'rsatadi.

fondlar bilan qurollanganlik quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$F_{qr} = AsVyq / X_{son}$$

Bunda, F_s – fondlar bilan qurollanganlik; X_{son} – xodimlarning o'rtacha yillik soni; $AsVyq$ – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati.

Fondlar rentabelligi – asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligining umumiy ko'rsatkichi bo'lib, korxonaning asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymatiga to'g'ri keladigan foyda miqdorini ko'rsatadi.

Ushbu ko'rsatkichning dinamikada oshishi asosiy fondlardan samarali foydalanishni anglatadi, kamayishi esa, agar fondodacha ham ortsa, korxonaning xarajatlari ko'payganligini bildirishi mumkin.

Fondlar rentabelligi asosiy faoliyatdan olingan foydaning asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

$$F_{rent} = Foyda / AsVyq$$

Bunda, F_{rent} – fondlar rentabelligi; $Foyda$ – tashkilot foydasi; $AsVyq$ – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati.

Bu ko'rsatkichlar umumiy hisoblanadi. Shu bilan birga, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining maxsus ko'rsatkichlari ham mavjud:

- uskuna va jihozlardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti;
- uskuna va jihozlardan intensiv foydalanish koeffitsiyenti;
- integral koeffitsiyent;
- smenalik koeffitsiyenti.

Uskuna va jihozlardan foydalanish samaradorligini baholash uchun bir nechta ko'rsatkichlar mavjud. **Ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti** uskuna va jihozlarning ishlash vaqtini ko'rsatadi va faktik ish va rejalashtirilgan ish fondi nisbati bilan aniqlanadi.

Intensiv foydalanish koeffitsiyenti esa uskuna quvvatining samaradorligini bildiradi va faktik ishlab chiqarish hajmining maksimal imkoniyatlarga nisbati orqali hisoblanadi.

Integral koeffitsiyent uskuna va jihozlarning vaqt va quvvat bo'yicha birgalikdagi ishlatilishini tavsiflaydi va ekstensiv va intensiv koeffitsiyentlar ko'paytmasi sifatida aniqlanadi. **Smenlik koeffitsiyenti** har bir uskuna birlikning o'rtacha nechta smenada ishlashini ko'rsatadi va birinchi, ikkinchi va uchinchi smenadagi uskuna sonining umumiy o'rnatilgan uskuna soniga nisbati bilan hisoblanadi. Ushbu barcha ko'rsatkichlarni hisoblash korxonada boshqaruv hisobida, ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirishda va uskuna resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashda muhimdir.

Xulosa va takliflar

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega, chunki u korxonada resurslarining iqtisodiy samaradorligini va moliyaviy natijalarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, asosiy vositalarning hisobini to'g'ri yuritish, ularning boshlang'ich qiymatini aniqlash, amortizatsiyani hisoblash va umumiy hamda maxsus ko'rsatkichlarni qo'llash samarali boshqaruvni ta'minlaydi. Fond qaytimi, fond sig'imi, fondlar bilan qurollanganlik va

fondlar rentabelligi kabi umumiy ko'rsatkichlar, shuningdek uskuna va jihozlardan foydalanishning ekstensiv va intensiv koeffitsientlari, integral koeffitsient va smenalik koeffitsienti asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini aniqlashda muhim vositalardir. Ushbu ko'rsatkichlarni muntazam tahlil qilish orqali budjet tashkilotlari o'z asosiy vositalaridan samarali foydalanishni oshirishi va moliyaviy samaradorlikni yaxshilashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Салковская, И. М. "СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ АНАЛИЗА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ." *Энергия науки*. 2015.
2. Аветисян, А. Р. "Совершенствование методики анализа основных средств." *НОВЫЕ МОДЕЛИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ*. 2019.
3. Koval, Natalia. "Organizational and methodological aspects of accounting of fixed assets of budget institutions." *In: Theoretical and practical aspects of science development: Scientific monograph. Part 1. Riga, Latvia: Baltija Publishing, 2023. P. 85-117. DOI: <https://doi.org/10.30525/1978-9934-26-355-2-4> (2023).*
4. Gerasimova, Larisa. "Financial analysis in budgetary institutions." *International Scientific Siberian Transport Forum*. Cham: Springer International Publishing, 2019.
5. Andriiovych, Prodanchuk Mykhailo, and Bezdushna Yuliia Serhiivna. "Accounting for non-current assets in budgetary institutions: problems and solutions." *Ekonomika APK* 12 (2020).
6. Xashimov, Akram. "BUXGALTERIYA HISOBI (darslik 2-nashr 1-jild)." *Nordic_Press* 7.0007 (2025).
7. Xurramovich, Mardanov Zafar. "ASOSIY VOSITALAR XAMDA NOMODDIY AKTIVLAR XISOBI VA UNI OCHIB BERISH BHXS MISOLIDA." *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali* 4.03 (2024): 163-168.
8. Madatovich, Esanov Oybek, and Nabiyeva Umeda Valizoda. "ASOSIY VOSITALAR HISOBI." *Luchshie intellektualnye issledovaniya* 43.1 (2025): 184-195.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

